7-SINF ONA TILI VA ADABIYOT

Maktabim.uz

2018

DIKTANT UCHUN MATNLAR

Nuqtaning qudrati

Mir Alisher Navoiy o‘z g‘azallarini zamonasining eng zo‘r bilimdoni - **xattotlariga**[1] ko‘chirtirardi. Nima bo‘ldi-yu, o‘z xattotining tobi qochib qoldi. Bundan xabardor bo‘lgan, o‘zini mashhur xattotlardan deb yurgan bir kishi “Rozi bo‘lsalar, Alisher Navoiyning xizmatlarini jonim bilan bajarardim”, debdi.

Shoir uning bu gapini eshitib, she’rlarini ko‘chirtirishga beribdi. Bir kuni katta **mushoirada**[2] Alisher Navoiyning qulog‘iga “**Malikul shuaroning**[3] o‘zlari nuqson qusurcha yo‘l qo‘yibdilarmi, boshqalardan nimani ham kutish mumkin”, degan gap qulog‘iga chalinibdi.

Gap nimadaligini darrov fahmlagan shoir yaqinda ko‘chirtirgan g‘azallarni olib o‘qidi, qarasa o‘zi aytgan gap emasmish. Maqtanchoq xattot tushmagur “ko‘z” so‘zidagi bir nuqtani tushirib qoldirganidan, bu so‘z “ko‘r” bo‘lib qolgan va she’r ma’nosi o‘zgarib, aksincha chiqqan ekan.

Alisher Navoiy ahli **fozillarga**[4] qarab:

– Ko‘zimni ko‘r qilgan ko‘r bo‘lsin!– debdi-da, xattotga javob berib yubordi.

(“El desa Navoiyni ” kitobidan. 119 so‘z)

---

[1] Hattot – Chiroyli va aniq yozadigan odam.

[2] Mushoira – Ikki yoki bir necha shoirning bir mavzuda bir-birining fikr va tuyg`ularini rivojlantiradigan she’r aytish musobaqasi.

[3] Malikul shuaro – O`tmishda eng o`tkir shoirlarga berilgan unvon va saroyda shunday shoirga berilgan unvon.

[4] Fozil – fan asoslarini yaxshi egallab olgan kishi, olim.

Orzular oshiyoni

Mustaqillik maydonida yangidan qad rostlagan betakror inshootlardan yana biri, bu ezgulik arkasidir. Arka azaldan “Kirish joyi, tabarruk ostona”, degan ma’nolarni anglatadi. Darhaqiqat, mamlakatimizning bosh maydoni xalqimizning, mamlakatimizning asrlar davomida ko‘nglida bo‘lgan ulkan orzu-niyatlari ushalganligining ifodasidir.

O‘zini O‘zbekiston fuqarosiman, deb hisoblagan har bir inson o‘z hayoti mobaynida, loaqal bir marta ezgulik arkasiga kelishi, shu yerning havosidan to‘yib nafas olishi, shunday baxtga musharraf bo‘lganidan ko‘nglida g‘urur sezishi kerak. Shunday tuyg‘uni his etgan ota-ona bu haqda farzandlariga o‘qitishi lozim.

Bu maskanga qadam qo‘ygan har qanday inson qalbida faqat ezgu tuyg‘ular barg yozadi. Biz yurtimizga tashrif buyurgan mehmonlarga ezgulik arkasini bajonidil ko‘rsatishga hamisha tayyormiz.

Ezgulik arkasining muhim jihati shuki, u ham bo‘lsa, mazkur maydonning xalqimiz hayotida tutgan ma’naviy ahamiyatidir. Ayniqsa, yangi oila qurayotgan yoshlar uchun bu maskan hayot yo‘lini boshlab beruvchi yorug‘lik timsoli bo‘lib qoladi.

“Ezgulik arkasi” farzandlarimiz uchun chinakam orzular oshiyoni bo‘lib qolsin.

(Sh. Jabborov. 142 so‘z)

Bizning rasmiy sayt: maktabim.uz

Hamkor sayt: azamat.moy.su

Telegram manzilimiz: @maktabimuz

Telegram botimiz: @imtihonbot

Admin bilan aloqa: @ziyokor